



MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

H.TURSUNALIYEV

D.FAXRITDINOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ANNOTATSIYA: Maqolada mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligining mohiyati va uni aniqlash uslubiyoti yoritilgan.

Kalit soʻzlar: mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy byudjet xarajatlari, byudjet transfertlari, mahalliy byudjet barqarorligi, byudjet barqarorlik darajasi.

АННОТАЦИЯ: В статье раскрывается сущность финансовой устойчивости местных бюджетов и методика ее определения.

Ключевые слова: местный бюджет, доходы местного бюджета, расходы местного бюджета, бюджетные трансферты, устойчивость местного бюджета, уровень устойчивости бюджета.

ABSTRACT: The article reveals the essence of the financial stability of local budgets and the methodology for its determination.

Key words: local budget, local budget revenues, local budget expenditures, budget transfers, local budget sustainability, level of budget sustainability.

KIRISH

Mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi bu shunday kompleks tushunchaki, unga koʻra maʼlum bir mahalliy hududning barqaror rivojlanishi, shu bilan birga, byudjet riski mavjud vaqtda ham moliyaviy xavfsizligini saqlab tura olishi uchun zarur boʻlgan



miqdorda pul fondiga egalik holatini aks ettiradi. Bunda mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi shartlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- byudjet xarajatlari va daromadlarining balanslashtirilganligi;
- byudjetning moliyaviy mustaqilligi va to'lovga qobiliyatligi, ya'ni mahalliy organlarning hech qanday moliyaviy yordamsiz, byudjetga moliyaviy resurslarni safarbar qila olish qobiliyati;
- o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi.

Ko'pgina xorij adabiyotlarida, byudjet barqarorligini ta'minlashda uch indikator o'rganiladi:

- 1) Byudjet simmetriyasi;
- 2) Daromad potentsiali;
- 3) Byudjetning ta'minlanganligi.

Ko'rish mumkinki, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi ularning moliyaviy xavfsizligi bilan uzviy bog'liqlikda ifodalangan. Zero, shu orqali moliyaviy barqarorlikning turli darajalarini, ularni belgilovchi mezonlari va indikatorlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi etarli darajada o'z moliyaviy mablag'lariga ega bo'lishi, byudjetning balanslashtirilganligi hamda xarajatlarning aksariyat qismi aynan ijtimoiy-madaniy sohani moliyalashtirishga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim ko'rsatkichlar bo'lib, bu – daromadlarning shakllanishi, ularning manbalari hamda xarajatlar va ularning yo'nalishlaridir. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini baholash orqali mahalliy organlar kelasi moliyaviy yil uchun samarali mahalliy byudjetni rejalashtirishni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Xususan, ko'pchilik davlatlarda yuqoridagi ko'rsatkichlarning me'yoriy qiymati belgilangan bo'lib, shu asosida munitsipal byudjetlar o'z moliyaviy holatini baholaydi va o'z faoliyatini yuritadi. Mazkur indikatorlar turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin, chunki ularda byudjet siyosati va moliyaviy



rivojlanish tentsiyalari turlichadir.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali mahalliy hududiy birliklarning nafaqat moliyaviy holati yaxshilanadi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati oshadi. Shunisi ahamiyatliki, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Sababi, ijtimoiy xarajatlar jami mahalliy xarajatlarning kattagina qismini tashkil etadi va u o'z ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash hamda madaniyat sohalarini qamrab oladi. Quyidagi 1-jadvalda mahalliy byudjet barqarorligini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga erishish murakkab masala hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonda mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ular moliyaviy imkoniyatlarini oshirish lozimdir. Buning uchun esa, avvalo, mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini oshirish, qo'shimcha daromadlar zahiralarini shakllantirish hamda mahalliy byudjetlar xarajatlari majburiyatini optimallashtirish zurrur bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga erishish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hamda mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari nobarqaror bo'lib, yaqin yillargacha uning daromad va xarajatlari turli xil usul va vositalar orqali muvozanatlashtirilib kelindi. Quyida keltirilayotgan jadval orqali biz mahalliy byudjetlarning 2018-2023 yillardagi miqdori, tarkibi va dinamikasi bilan tanishishimiz mumkin

Ma'lumki, 2021 yildan boshlab mamlakatimizda byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini yanada oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etildi. Xususan, 2020 yildan boshlab davlat byudjeti qonun bilan tasdiqlanmoqda. Soliq turlarini byudjet bo'g'inlari (respublika byudjeti; Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti; tuman va



shaharlar byudjeti) o'rtasida taqsimlashning yangi tartibi amaliyotga kiritildi.

MUHOKAMA

Jumladan, 5 turdagi soliqlar tuman va shaharlar byudjetlarida; 13 turdagi soliqlar va yig'imlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetida, viloyatlarning viloyat byudjetlarida, Toshkent shahrining shahar byudjetlarida; 4 turdagi soliqlar esa respublika byudjetida to'liq qoldirilmoqda. 3 ta mahalliy byudjetda (Navoiy, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida) jismoniy shaxslarning daromad solig'i va yuridik shaxslarning foyda solig'idan tushadigan daromadlarning bir qismi qoldirilayotgan bo'lsa, qolgan hududlarda ushbu soliqlardan daromadlar to'liq hajmda tegishli mahalliy byudjetga yo'naltirilmoqda (3-jadval).jadval Soliqlarning byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi (foiz hisobida) *faqat 2020 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy byudjetida QQS to'liq qoldirilgan.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlar va boshqa turdagi daromadlar hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashlari, yoki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olinadigan mablag'larning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga yo'naltirishlari mumkin.

Hududlarning iqtisodiy salohiyati, tabiiy shart-sharoitlari, mehnat resurslari turlicha bo'lganligi, tabiiy ravishda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida, bu mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida sanab o'tgan omillar natijasida hududlar byudjetida shakllanadigan daromadlar miqdori ham turlichadir (4-jadval).

Xususan, 2018-2023 yillarda hududlar mahalliy byudjetlarining jami daromadlari tarkibida Toshkent shahri (o'rtacha 12,6%), Qashqadaryo (o'rtacha 9,7%), Toshkent (o'rtacha 9,8%), Farg'ona (o'rtacha 10,2%), viloyatlari byudjetlari daromadlari boshqa hududlar daromadlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Bunday holatnimazkur hududlarning iqtisodiy salohiyati yuqoriligi va sanoatining nisbatan rivojlanganligi, tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti va hududiy infratuzilmaning yaxshiligi natijasida soliq to'lovchi



yuridik va jismoniy shaxslar sonining boshqa hududlarga nisbatan ko'pligi bilan izohlash mumkin 2018-2023 yillarda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining mahalliy byudjetlar xarajatlaridagi salmog'i sezilarli darajada yuqori bo'lib, yillik o'rtacha 79,6 foizni tashkil qilgan (8-jadval). Bu esa mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlarning ustuvorligi saqlanib qolingan holda 2016-2021 yillarda ushbu sohaga yo'naltirilgan mablag'lar miqdori yiliga o'rtacha 17603,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bunday holat mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari faol moliyalashtirilayotganligini ko'rsatadi va aholini ijtimoiy himoya qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining O'zbekiston hududlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, Andijon (yillik o'rtacha 8,3%), Qashqadaryo (yillik o'rtacha 8,5%), Samarqand (yillik o'rtacha 10,1%), Toshkent (yillik o'rtacha 8,1%), Farg'ona (yillik o'rtacha 9,7%) viloyatlari va Toshkent shahri (yillik o'rtacha 9,9%) byudjetlari xarajatlarining mahalliy byudjetlar jami xarajatlari tarkibidagi ulushining yuqoriligi ushbu hududlarda aholi zichligi bilan birgalikda byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag' oluvchilar va davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan aholi sonining boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi

Shu sababli mahalliy byudjetlarga yuqori turuvchi byudjetdan daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash maqsadida turli ko'rinishlardagi moliyaviy transfertlar ajratiladi. Chunki, Byudjet Kodeksining 142-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim.

TAHLIL NATIJALARI

Ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimiz byudjet tizimida yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga (ya'ni, respublika byudjetidan viloyat byudjetiga yoki viloyat byudjetidan tuman va shaharlar byudjetiga) trasfertlar 2023 yilga qadar ta'lim va tibbiyot muassasalari xodimlarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovlarni to'lash maqsadida



ajratilgan. Bunday transfertlar faqat shu maqsad yo'lida sarflanishi belgilanganligi bois ular maqsadli transfertlar deyilgan.

Yuqorida ta'kidlanimizdek, 2023 yildan boshlab mamlakatimizda yangi byudjet tizimi joriy etildi, byudjet daromadlari va xarajatlari byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlandi. Yangi tartibga ko'ra, endilikda quyi byudjetlarga maqsadli transfertlar emas, balki daromad va xarajatlari miqdorini muvozanatlash uchun tartibga soluvchi (daromad va xarajatlar miqdorini tenglashtiruvchi) transfertlar ajratilmoqda.

Moliyaviy transfertlar byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu transfertlar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir. O'zaro hisob-kitoblar, asosan, byudjet sohasi xodimlarining ish haqlari miqdorining oshirilishi bilan bog'liq indeksatsiya qilish xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, o'zaro hisob-kitoblar byudjetda nazarda tutilmagan boshqa turdagi xarajatlarga qo'shimcha maqsadli yordam tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Har yili tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetito'g'risidagi Qonunda respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga va viloyatlarning viloyat byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari tasdiqlanadi.

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021 yilda respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratilgan tartibga soluvchi transfertlarning miqdori 10 170,9 mlrd. so'm, 2022 yilda esa 10 443,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2023 yilda esa hududlar mahalliy byudjetlariga 14 115,6 mlrd. so'm tartibga soluvchi transfertlar byudjetidan ajratilishi rejalashtirilgan. 2021-2023 yillarda mahalliy byudjetlarga ajratilgan tartibga soluvchi transfertlarning o'rtacha 14,0 foizi Qashqadaryo viloyatiga, 12,7 foizi Surxondaryo viloyatiga, 12,5 foizi Namangan viloyatiga, 10,4 foizi Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda



Xulosa

Afsuski, bu holat o'z navbatida, tuman mahalliy byudjetining yuqori byudjet, ya'ni viloyat byudjetiga qaramligini oshiradi. Moliyaviy transfertlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va tuman mahalliy byudjeti mustaqilligini oshirishda mahalliy davlat hokimiyati va moliya organlari o'z vakolatlari doirasida mahalliy byudjet daromadlaridan oqilona foydalanishlari, mavjud mablag'larning maqsadli sarflanishi uchun shaxsiy javobgarlik va mas'uliyatlarini oshirishlari, shuningdek, xarajatlarning maqsadlilikini, manzilligini ta'minlashi va ulardan oqilona foydalanilishini nazorat qilishlari talab etiladi. Mazkur tadbirlarning samarali amalga oshirilishi, pirovardida, yalpi hududiy mahsulot va ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishiga, hudud aholisining turmush farovonligining yanada yaxshilanishiga, hududlar moliyaviy imkoniyatlarining kengayishiga hamda tuman mahalliy byudjet daromadlari barqarorlashuviga olib keladi.

REFERENCES:

1. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.
2. Dilmurod o'g'li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1* (2024): 19-23.
3. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 20-21.
4. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 934-940.
5. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 44. – №. 2. – C. 178-183.